



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV


Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, magistranti
Choriyeva Muattar Sharofiddin qizi
E-mail: choriyevamuattar@gmail.com

EKSPORT SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hududning eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Eksport salohiyatining mazmuni va uni shakllantiruvchi asosiy omillar ochib beriladi. Shuningdek, hududiy resurslardan samarali foydalanish, eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish orqali eksport salohiyatini rivojlantirishning optimal yechimlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: hudud eksport salohiyati, tashqi savdo, eksportni diversifikatsiya qilish, yuqori qoʻshilgan qiymat, hududiy raqobatbardoshlik, eksport siyosati.

ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития экспортного потенциала региона. Раскрывается сущность экспортного потенциала и основные факторы, влияющие на его формирование. Обосновываются оптимальные решения по развитию экспортного потенциала на основе эффективного использования региональных ресурсов, диверсификации экспорта и увеличения доли продукции с высокой добавленной стоимостью. Результаты исследования могут быть использованы при совершенствовании региональной экономической политики.

Ключевые слова: экспортный потенциал региона, внешняя торговля, диверсификация экспорта, высокая добавленная стоимость, региональная конкурентоспособность, экспортная политика.

FACTORS FOR SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT THROUGH EFFECTIVE UTILIZATION OF EXPORT POTENTIAL

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing regional export potential. The essence of export potential and the key factors influencing its formation are examined. Optimal solutions for enhancing regional export potential are substantiated through efficient use of regional resources, export diversification, and an increase in the share of high value-added products. The research findings are relevant for improving regional economic policy and export-oriented development strategies.

Keywords: regional export potential, foreign trade, export diversification, high value added, regional competitiveness, export policy.

KIRISH

Jahon xoʻjaligida eksport faoliyati iqtisodiy oʻsish va xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, 2023–2024 yillarda global tovar eksporti hajmi 24 trillion AQSh dollaridan oshib, xizmatlar eksporti esa 7,5–8 trillion AQSh dollariga yetgan [1]. Ushbu koʻrsatkichlar eksportning jahon iqtisodiyotidagi ulushi yuqori

darajadasaqlanib qolayotganini va global iqtisodiy barqarorlikka bevosita taʼsir koʻrsatayotganini tasdiqlaydi. Oʻzbekiston misolida qararak soʻnggi yillarda tashqi savdo aylanmasining YAIMga nisbati oʻrtacha 55-65% atrofida boʻlib kelmoqda. Bu mamalakat iqtidosiyoti tashqi bozorlar bilan faol integratsiyalashganini koʻrsatadi.

Jahon eksporti tarkibida yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda mashinasozlik,

elektronika, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari eksportning asosiy qismini tashkil etadi. Xususan, Xitoy, AQSh va Germaniya jahon tovar eksportining qariyb 40 foizidan ortig'ini ta'minlab, global eksport salohiyatining markazlashganligini ko'rsatmoqda [2]. Bu holat eksport salohiyatini rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuv va texnologik ustunlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini anglatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa eksport tarkibida xomashyo va past darajada qayta ishlangan mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Bunday tuzilma eksport daromadlarining tashqi narxlar tebranishiga sezgirligini oshirib, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni cheklaydi [3]. Shu sababli jahon amaliyotida eksport salohiyatini rivojlantirish masalasi eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish bilan bevosita bog'lanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham eksport salohiyatini kuchaytirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 65 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, eksport hajmi 26–27 milliard AQSh dollarini tashkil etgan [4]. Eksport tarkibida oltin va boshqa xomashyo mahsulotlari muhim ulushga ega bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, sanoat va xizmatlar eksportining o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda [5]. 2026-2030 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida eksportni oshirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Ya'ni strategiya eksport hajmini 2030-yilga kelib taxminan 67 milliard AQSH dollariga yetkazishni maqsad qilgan.

Mazkur holatlar hududlar kesimida eksport salohiyatini chuqur tahlil qilish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va eksportni rivojlantirishning optimal yechimlarini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Aynan hududiy darajadagi eksport salohiyatining to'liq ro'yobga chiqarilishi milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Eksport salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda hudud yoki mamlakatning mavjud resurslar asosida tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yetkazib berish imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Jahon Savdo Tashkiloti va Xalqaro Savdo Markazi tadqiqotlarida


eksport salohiyati ishlab chiqarish imkoniyatlari, logistika infratuzilmasi, institutsional muhit va tashqi bozorlar bilan integratsiya darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini qayd etiladi [1], [2]. Ushbu yondashuvlarda eksport salohiyati statik ko'rsatkich emas, balki texnologik rivojlanish va iqtisodiy siyosat ta'sirida o'zgarib boruvchi dinamik kategoriya sifatida qaraladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda eksport salohiyatini rivojlantirish masalasi ko'pincha eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish bilan bog'lab o'rganiladi. UNCTAD va Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, xomashyo eksportiga yuqori darajada tayanish iqtisodiyotning tashqi shoklarga nisbatan zaifligini kuchaytiradi, qayta ishlash sanoati va texnologik mahsulotlar eksporti esa eksport barqarorligini ta'minlaydi [3], [4]. Shu bilan birga, hududiy ixtisoslashuv va klasterlashuv mexanizmlarini rivojlantirish eksport salohiyatidan samarali foydalanishning muhim omili sifatida ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda eksport salohiyatini oshirish masalasi asosan hududiy resurslardan samarali foydalanish, sanoatni modernizatsiya qilish va kichik biznesning eksportdagi ishtirokini kengaytirish bilan izohlanadi. Milliy statistik va tahliliy manbalarda eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining yuqori ulushi saqlanib qolayotganligi, shu bilan birga sanoat va xizmatlar eksportining o'sish tendensiyasi mavjudligi qayd etiladi [5], [6]. Tadqiqotchilar hududlar kesimida eksport salohiyatini baholash va manzilli eksport siyosatini ishlab chiqish O'zbekistonning tashqi savdodagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar.

So'nggi yillarda O'zbekiston eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar eksportning institutsional, tarmoqlararo va hududiy jihatlarini kompleks yoritib bermoqda.

Mamlakat eksport salohiyatining umumiy holati va rivojlanish tendensiyalari Adixamjon Qodirjonov tomonidan tizimli ravishda tahlil qilingan [11]. Muallif eksport salohiyatining shakllanishida ishlab chiqarish bazasi, logistika infratuzilmasi hamda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining muhim rolini asoslab beradi. Eksportni rivojlantirishning strategik va istiqbolli yo'nalishlari F. S. Nurali o'g'li tadqiqotida



yoritilgan [13]. Tadqiqotda innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish, hududiy diversifikatsiya va logistika xizmatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakat miqyosidagi yondashuvlar tarmoqlar kesimida T.U. Muhammadjonovna tomonidan aniqlashtirilgan [12]. Muallif to'qimachilik sanoatining eksportdagi o'rnini tahlil qilib, tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish orqali qo'shilgan qiymatni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Hududiy eksport salohiyatini rivojlantirishda kichik biznesning roli X. R. Allayor o'g'li tomonidan o'rganilgan [15]. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash hududiy eksportni faollashtirishning muhim omili sifatida baholangan.

Eksport salohiyatini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishda marketing mexanizmlarining o'rne E. Xojiyev tadqiqotida asoslab berilgan [14]. Muallif bozor konyunkturasini o'rganish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish eksport samaradorligini oshirishda muhim ekanini ta'kidlaydi.

Eksport o'sishining yakuniy natijalari mahsulot va bozor diversifikatsiyasi bilan bog'liq holda Sh. Otamurodov va N. Eshqulova tomonidan tahlil qilingan [16]. Mualliflar yangi mahsulotlar va bozorlarni o'zlashtirish eksport barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot hududning eksport salohiyatini rivojlantirishning optimal yechimlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda iqtisodiy tadqiqotlarning umumilmiy va maxsus metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi eksport salohiyatining nazariy asoslarini o'rganish, mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda ularni hududiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'lashga yo'naltirildi. Ushbu yondashuv eksport salohiyatini statik ko'rsatkich sifatida emas, balki dinamik iqtisodiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, taqqoslama tahlil va tizimli yondashuv metodlari asosiy o'rinni egalladi. Jahon va O'zbekiston bo'yicha eksport ko'rsatkichlari Jahon Savdo Tashkiloti, UNCTAD hamda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qilindi [1], [3], [4]. Statistik ma'lumotlar yordamida eksport hajmi,

uning tarkibiy tuzilmasi, o'sish sur'atlari va diversifikatsiya darajasi baholandi. Taqqoslama tahlil metodi orqali O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari jahon tendensiyalari bilan solishtirilib, mavjud farqlar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda mantiqiy tahlil va abstraksiyalash metodlaridan foydalanilib, eksport salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirildi. Ushbu metodlar hududiy resurslar, ishlab chiqarish tuzilmasi va institutsional muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari umumlashtirish va induksiya metodlari asosida xulosa va amaliy takliflar shaklida ifodalandi. Tanlangan metodologiya tadqiqot maqsadiga erishish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishni ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston eksport salohiyatining joriy holatini baholashda, avvalo, tashqi savdo ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 65 mlrd AQSh dollaridan oshib, eksport hajmi 26,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport hajmining 2023 yilga nisbatan 8 foizdan ortiq o'sishi tashqi bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarning kengayayotganini ko'rsatadi. Biroq import hajmining eksportdan yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida tashqi savdo saldosini manfiylikka qolmoqda. Bu holat eksport o'sishi hali iqtisodiyotning tashqi savdo muvozanatini ta'minlash uchun yetarli emasligini anglatadi va eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Eksport tarkibining tahlili eksport salohiyatining sifat jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, eksport tarkibida qimmatbaho metallar, xususan oltin mahsulotlari katta ulushni egallab kelmoqda. Bunday holat eksport tushumlarining muhim qismi xomashyo yoki resursga asoslangan mahsulotlar hisobiga shakllanayotganini bildiradi. Resursga yo'naltirilgan eksport qisqa muddatda barqaror valyuta tushumlarini ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda jahon narxlarining tebranishiga yuqori darajada bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli eksport tarkibining bunday tuzilishi iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan cheklovchi omil sifatida baholanadi.

Jahon va milliy eksport salohiyatini baholashda,

avvalo, ularning umumiy hajmi va o'sish sur'atlarini qiyosiy tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ushbu jadval global savdo jarayonlari fonida O'zbekiston eksportining o'ri va dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

Jahon va O'zbekiston eksport hajmi (2020–2024 yillar)¹

| Ko'rsatkich | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|
| Jahon eksporti (mlrd \$) | 22459.7 | 28115.7 | 31600 | 31100 | 32300 |
| O'zbekiston eksporti (mlrd \$) | 14.56 | 16.48 | 20.96 | 25.1 | 26.2 |
| O'zbekistonning jahon eksportidagi ulushi (%) | 0.0648 | 0.0586 | 0.0663 | 0.0807 | 0.0811 |

Birinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki, jahon eksporti 2024 yilda nisbatan past, biroq barqaror o'sish sur'atini namoyon etgan. Bu global savdo hajmining yuqori darajada saqlanib qolayotganini va xalqaro bozorlar faoliyatining izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston eksportining o'sish sur'ati jahon o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori bo'lib, bu mamlakat eksport salohiyatining faollashganini anglatadi. Mazkur holat eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmining kengayishi va tashqi bozorlarda faollikning ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning jahon eksportidagi ulushi juda past darajada qolmoqda. Bu holat eksport hajmidagi o'sishga qaramay, mamlakatning global savdodagi pozitsiyasi hali mustahkamlanmaganini va eksport salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi.

Eksport salohiyatini chuqurroq tahlil qilish uchun mamlakat tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari hamda savdo saldosi dinamikasini o'rganish zarur. Quyidagi jadval ushbu ko'rsatkichlarni aks ettiradi.

2-jadval

O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlari (2023–2024 yillar)²

| Ko'rsatkich | 2023 yil | 2024 yil | O'zgarish |
|----------------------------------|----------|----------|--------------|
| Tashqi savdo aylanmasi (mlrd \$) | 62,6 | 65,9 | +5,3% |
| Eksport (mlrd \$) | 24,2 | 26,9 | +8,4% |
| Import (mlrd \$) | 38,4 | 39,0 | +1,6% |
| Savdo saldosi (mlrd \$) | -14,2 | -12,1 | Yaxshilangan |

Ikkinchi jadval ma'lumotlari tashqi savdo aylanmasining barqaror o'sishini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvi kuchayayotganini anglatadi va eksport salohiyati uchun qulay sharoit yaratilayotganini bildiradi.

Eksport hajmining importga nisbatan tezroq o'sishi savdo saldosinga nisbatan yaxshilanishiga olib kelgan. Biroq savdo saldosinga hanuz manfiy bo'lib qolishi importga yuqori darajada qaramlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat eksport salohiyatidan foydalanishda sifat omillariga yetarli e'tibor berilmaganini anglatadi. Xususan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish orqali savdo muvozanatini yaxshilash imkoniyatlari mavjud.

Eksport salohiyatining sifat jihatlari mahsulot tarkibi orqali baholanadi. Quyidagi jadval eksport qilinayotgan mahsulotlarning tuzilmasini va ularning umumiy eksportdagi ulushini ko'rsatadi.

3-jadval

O'zbekiston eksportining mahsulot tarkibi (2024 yil)³

| Mahsulot guruhi | Eksport hajmi (mlrd \$) | Ulushi (%) |
|------------------------------|-------------------------|------------|
| Oltin va qimmatbaho metallar | 7,9 | 29,3 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 3,2 | 11,9 |
| To'qimachilik mahsulotlari | 2,9 | 10,8 |
| Kimyo mahsulotlari | 1,8 | 6,7 |
| Mashina va uskunalar | 1,0 | 3,7 |
| Boshqa mahsulotlar | 10,1 | 37,6 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari, ayniqsa oltin ulushi yuqori darajada qolmoqda. Bu eksport tushumlarining katta qismi tabiiy resurslarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Bunday tuzilma qisqa muddatda valyuta tushumlarini ta'minlashi mumkin, biroq uzoq muddatda eksport daromadlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon bozorlaridagi narxlarning o'zgaruvchanligi eksport salohiyatini zaiflashtiruvchi omilga aylanadi.

Mashina va uskunalar kabi yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ulushining pastligi sanoatning texnologik rivojlanish darajasi yetarli emasligini koʻrsatadi. Bu hududlarda sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion eksportni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Eksport salohiyatining yana bir muhim jihati — uning geografik tuzilmasidir. Quyidagi jadval Oʻzbekiston eksportining asosiy yoʻnalishlarini aks ettiradi.

4-jadval

Oʻzbekiston eksportining asosiy savdo hamkorlari (2024 yil)⁴

| Savdo hamkori | Eksportdagi ulushi (%) |
|------------------|------------------------|
| Rossiya | 12,3 |
| Xitoy | 5,5 |
| Qozogʻiston | 4,0 |
| Afgʻoniston | 3,7 |
| Turkiya | 3,0 |
| Boshqa davlatlar | 71,5 |

Eksportning katta qismi yaqin va anʼanaviy savdo hamkorlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Bu transport va logistika nuqtayi nazaridan maʼlum ustunliklarni beradi.

Biroq eksport geografiasining bunday konsentratsiyasi tashqi iqtisodiy xatarlarni oshiradi. Ayrim asosiy bozorlar bilan bogʻliq iqtisodiy muammolar eksport hajmiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Shu sababli eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, uzoq xorij mamlakatlari ulushini oshirish hudud eksport salohiyatini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Oʻtkazilgan tahlillar natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston eksport salohiyati miqdor jihatdan barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻlsa-da, undan foydalanish samaradorligi hali yetarli darajada emas. Eksport hajmining oʻsishi asosan xomashyo va resursga yoʻnaltirilgan mahsulotlar hisobiga taʼminlanmoqda. Bu holat qisqa muddatda valyuta tushumlarini oshirsada, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash nuqtayi nazaridan cheklovchi omil sifatida namoyon boʻlmoqda.

Tahlil natijalari hudud eksport salohiyatini rivojlantirishda bir qator tizimli muammolar mavjudligini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, eksport tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi, yuqori qoʻshilgan

qiymatli sanoat mahsulotlari ulushining pastligi, logistika va eksport infratuzilmasining hududlar kesimida notekis rivojlanganligi hamda eksport bozorlarining cheklanganligi asosiy muammolar sifatida aniqlanadi. Ushbu omillar eksport salohiyatining sifat jihatdan rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish hudud eksport salohiyatini rivojlantirishga kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari asosida hudud eksport salohiyatini rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi. Ushbu model resurslar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, infratuzilma va tashqi bozorlar oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikka asoslanadi.



1-rasm. Hudud eksport salohiyatini kompleks rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli

Taklif etilgan modelning birinchi bosqichida hududning tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat resurslari chuqur tahlil qilinib, eksportga yoʻnaltirilishi mumkin boʻlgan ustuvor tarmoqlar aniqlanadi. Bu bosqich hududning real imkoniyatlariga mos eksport ixtisoslashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi bosqichda qayta ishlash sanoati va sanoat kooperatsiyasi rivojlantirilib, eksport mahsulotlarining qoʻshilgan qiymati oshiriladi. Modelning keyingi bosqichida logistika, bojxona va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish orqali eksport infratuzilmasi mustahkamlanadi. Bu eksport xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Yakuniy bosqichda eksport geografiasini kengaytirish, yangi tashqi bozorlarni oʻzlashtirish va hudud eksportining barqarorligini taʼminlash choralari amalga oshiriladi.

Mazkur model asosida hudud eksport salohiyatini rivojlantirish eksport tarkibida yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar

ulushining oshishiga, eksport daromadlarining barqarorlashuviga va hududlar o'rtasidagi eksport nomutanosibligining kamayishiga olib keladi. Natijada tashqi savdo saldosini yaxshilanadi va milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari hudud eksport salohiyatini rivojlantirish faqat eksport hajmini oshirish bilan cheklanmasdan, uning tarkibi, sifati va geografiasini kompleks ravishda takomillashtirishni talab etishini ko'rsatadi. Taklif etilgan model ushbu jarayonni ilmiy asosda amalga oshirish uchun metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot hudud eksport salohiyatini rivojlantirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, eksport salohiyati hudud iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib, uning samarali ro'yobga chiqarilishi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Jahon va O'zbekiston tajribasi eksportni faqat hajm jihatidan emas, balki tarkib, sifat va geografiya nuqtayi nazaridan ham baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston eksporti miqdoriy jihatdan o'sib borayotgan bo'lsa-da, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Bu holat eksport daromadlarining jahon narxlaridagi tebranishlarga yuqori darajada bog'liqligini yuzaga keltiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni cheklaydi. Shu bilan birga, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar va sanoat mahsulotlari eksportining yetarli darajada rivojlanmaganligi hudud eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini pasaytirayotgan omil sifatida aniqlanadi.

Hududiy tahlil natijalari eksport salohiyatining hududlar kesimida notekis taqsimlanganini ko'rsatdi. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish va infratuzilma imkoniyatlari yuqori bo'lishiga qaramay, eksport faoliyati past darajada qolmoqda. Bu holat hududiy eksport ixtisoslashuvi va manzilli eksport siyosatini shakllantirish zarurligini asoslaydi. Hududlarning o'ziga xos resurs va ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda eksportni rivojlantirish eksport samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan "Hudud eksport salohiyatini kompleks rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli" aniqlangan

muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli yondashuvni ifodalaydi. Model resurslarni aniqlash, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, eksport infratuzilmasini mustahkamlash va eksport bozorlarini kengaytirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish va eksportning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari hudud eksport salohiyatini rivojlantirish faqat eksport hajmini oshirish bilan cheklanmasdan, uning sifat ko'rsatkichlarini kompleks ravishda yaxshilashni talab etishini ko'rsatadi. Taklif etilgan ilmiy xulosalar va model hududiy eksport siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. World Trade Organization. World Trade Statistical Review 2024. Geneva: WTO; 2024.
2. World Trade Organization. Global Trade Outlook and Statistics 2025. Geneva: WTO; 2025.
3. United Nations Conference on Trade and Development. Key Statistics and Trends in International Trade 2024. New York and Geneva: UNCTAD; 2024.
4. International Trade Centre. Trade Map: International Trade Statistics. Geneva: ITC; 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari (2023–2025 yillar). Toshkent; 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar. Toshkent; 2024.
7. Jahon banki. Global Economic Prospects. Washington, DC: World Bank; 2024.
8. UNDP. Trade and Development Report. New York: United Nations Development Programme; 2023.
9. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. 11th ed. Pearson Education; 2022.
10. Balassa B. Trade Liberalization and Revealed Comparative Advantage. Manchester School of Economic and Social Studies; 1965.
11. Qodirjonov A. O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyati // Ilmiy tadqiqotlar va yangi olam. – 2025. – T. 1, №1. – B. 284–299.
12. Muhammadjonovna T.U. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyati va rivojlanish dinamikasi // Innovative Developments and Research in Education. – 2025. – T. 4, №39. – B. 180–183.